

QORAQALPOG‘ISTONDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING YO‘NALISHLARI TAHLILI

Aliev P. K.

Qoraqalpog‘ davlat universiteti

Qoraqalpog‘istonning muvozanatli ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini barcha resurslardan maksimal darajada foydalanish hamda mahsulot sifatini yuqori darajada yaxshilagan holda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni talab etadi. Mazkur talablarni ta‘minlash uchun sohani rivojlantirish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni har tomonlama o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.[1]

Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasining boshqa mintaqalaridan ajratib turadigan mintaqaviy o‘ziga xos xususiyatlari ustuvor ahamiyatga ega.

Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan iqtisodiy rivojlanishdagi ma‘lum bir kechikish, mavjud tabiiy va sanoat resurslarini aniqlash hamda ulardan foydalanish borasida faoliyatning yetarli emasligini aytish mumkin.

– Mintaqaning yirik sanoat markazlaridan uzoqligi, bu esa import qilinayotgan mahsulot tannarxida transport xarajatlari ulushini sezilarli darajada oshiradi, tovarlarning arzonligi va raqobatbardoshligini cheklaydi.

– Tuproq eroziyasi jarayonlarining kuchayishi va unga ishlov berish xarajatlarining oshishi natijasida qishloq xo‘jaligi sohasi mahsulдорligining pasayishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining umumiy darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

– Hududning katta qismining iqtisodiy turg‘unligi suv resurslarining keskin tanqisligi bilan birgalikda barqaror infratuzilmani yaratish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.[2]

Shu nuqtayi nazardan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tarkibida alohida o‘rin tutadi. Mintaqaning o‘ziga xos tabiiy va iqtisodiy-geografik sharoitlari sanab o‘tilgan to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni taqozo etadi. Qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bunday mexanizmlarni amalga oshirish mintaqada barqaror iqtisodiy o‘rni shakllantirish va aholi turmush sifatini oshirishga asos bo‘lishi mumkin.[3]

Ko‘rib chiqilayotgan mintaqada qurilish hajmi dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, hududda qurilish ishlari hajmining barqaror o‘rni tendensiyasi mavjud (2.1-jadval).

2.1-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2019-2023 yillarda investitsion qurilish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (milliard so‘m)[7]

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarish, %
1. Asosiy vositalarni ishga tushirish	8750,6	7089,8	8110,7	10254,0	11945,2	136,5
shu jumladan ishlab chiqarish maqsadida	4672,0	3162,7	2781,1	4018,7	9153,1	195,9
2. Qurilish ishlari	3315,4	3992,5	4480,6	5272,4	5976,0	180,2

Mintaqada investitsion qurilishning rivojlanish sur‘atlari hududning qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini shunga mos ravishda olib borishni talab qiladi. Qoraqalpog‘istonning sanoat va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining 2019-2023 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish tahlili (2.2-jadval) shuni ko‘rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishining o‘rni sur‘atlari barqaror emas.

O‘rganilayotgan davrda sanoat korxonalarining umumiy soni 57,9 %ga, qurilish materiallari korxonalari esa 46,1 %ga, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish hajmi 94,1 %ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Aytish mumkinki bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida [8] belgilanganidek Qoraqalpog‘istonning ayrim tuman va shaharlarida rivojlanish “drayver”i sifatida qurilish materiallari sanoati keltirilishi hamda ushbu “drayver” sohalar uchun soliq engilliklari keltirilishi asosiy turtki bo‘ldi. Lekin, shunga qaramay, umumimintaqa hisobida foydaning kamayish tendensiyasini kuzatiladi.

Bu esa mamlakat miqiyosida qurilishni moliyalashtirishning boshqa hududlarga ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Foydaning manfiy sur‘atda o‘rni esa yangi korxonalarni tashkil etish va jihozlash xarajatlarining oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.[4]

2.2-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat va qurilish materiallari sanoatining qator ko‘rsatkichlari dinamikasi[9]

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarish, %
Sanoat ishlab chiqarishida qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining ulushi (%)	4,1	4,1	3,9	7,1	7,4	-
Sanoatdagi korxonalar soni, birlik	2321	2918	3211	3633	3666	157,9
Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati sohasidagi korxonalar soni, birlik	369	438	453	735	539	146,1
Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)	403,7	546,4	611	720,3	783,6	194,1
Xodimlar soni (kishi)	3140	2915	2455	2247	2683	85,4
Foyda (milliard so‘m)	21,2	-19,3	-29,7	-42,7	-45,7	-

Mintaqaning 2019-2023 yillarda sanoat bo'yicha asosiy qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmining holati tahliliga ko'ra, devor materiallari va temir beton materiallari ishlab chiqarish hajmi 56,6 %gacha qisqargan bo'lsa, devor materiallari ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 39,9 %ga qisqargan. Shu bilan birga, mintaqada sement ishlab chiqarish hajmi 2,6 martaga oshgan (2.3-jadval).

2.3-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasining qurilish materiallari sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi [9]

Ko'rsatkichlar nomi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023-yilni 2019-yilga nisbatan o'zgarish, %
Temir beton buyumlar ishlab chiqarish (t)	157175,3	61011,4	61945,5	130354,2	88986,8	56,6
Devor materiallari (ming dona)	107747,8	36228,8	35487,5	40171,3	43040,6	39,9
Sement, (ming tonna)	305,1	429,1	439,3	432,4	791,1	2,6 marta

Qurilishning strategik materiali bo'lgan sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi hudud uchun katta yutuq hisoblanadi: 2017 yildan boshlab Qoraqalpog'istonda birinchi marta sement mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu albatta, katta yutuqdir. O'rganilayotgan davrda esa sement ishlab chiqarishning qariyb 3 baravar o'sganini ko'rish mumkin.[6]

Qoraqalpog'istonda qurilish materiallari sanoati tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu sohada korxonalarining aksariyati asosan mintaqaning janubiy tumanlarida joylashganligidir. Tarmoq ishlab chiqarishining bunday hududiy konsentratsiyasi nafaqat o'ziga xos logistika va transport vazifalarini belgilaydi, balki infratuzilmani rivojlantirish va xomashyo bazasini ta'minlash sohasida innovatsion yechimlarni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi. Ushbu omil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatadi, chunki konsentratsiyalashgan ishlab chiqarish quvvatlari ma'lum hududlar doirasida barqaror iqtisodiy klasterlarni shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Buni biz temir-beton buyumlari ishlab chiqarishda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mintaqada 2019-2023 yillar mobaynida temir-beton buyumlari ishlab chiqarish hajmi 56,6 %gacha kamaygan. 2019-yilda temir-beton buyumlari ishlab chiqarish hajmi 157175,3 tonnani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 88986,8 tonna ishlab chiqarilgan. Ushbu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi eng ko'p Nukus shahri hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 2019-yilda bu ko'rsatkich 90,1 %ni, 78,5%ni tashkil etgan. 2023-yilda temir-beton buyumlari tumanlar kesimida faqatgina Amudaryo (7609,0 tonna), Beruniy (180,1 tonna), To'rtko'l (732,1 tonna) va Ellikqal'a (10563,0 tonna) tumanlarida ishlab chiqarilgan [6] (2.4-jadval).

Aytish kerakki, soha korxonalarida mahsulot tannarxi dinamikasi e'tiborga loyiq. 2.5-jadvalda Qoraqalpog'istonda qurilish materiallari ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, xizmatlar hajmidan kelib chiqqan holda, bu ko'rsatkich o'zgarib borgan. Mintaqada 2019-2023 yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish tannarxida moddiy xarajatlar hajmi 2,8 martaga, ishchi-xodimlarga to'lanadigan ish haqi miqdori 144,1 %ga, ijtimoiy sug'urta badallari 104,2 %ga o'sgan.

2.4-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019-2023 yillarda temir-beton buyumlari ishlab chiqarishi dinamikasi (tonna) [9]

Tuman	2019	2020	2021	2022	2023
Amudaryo tumani	2896,7	5664,0	4047,9	6705,0	7609,0
Beruniy tumani	6377,0	2567,0	2161,8	497,6	180,1
Qorao'zak tumani	-	-	6348,5	2741,8	-
Kegeyli tumani	-	-	-	-	-
Qung'iro't tumani	-	-	-	-	-
Qonliko'l tumani	-	-	-	-	-
Mo'ynoq tumani	-	-	-	-	-
Nukus tumani	-	-	-	-	-
Taxiatosh tumani	-	-	-	-	-
Taxtakopir tumani	-	-	-	-	-
To'rtko'l tumani	5028,0	3404,2	-	-	732,1
Xo'jayli tumani	-	-	-	-	-
Chimboy tumani	-	367,3	-	-	-
Sho'manay tumani	-	-	-	-	-
Ellikqal'a tumani	1200,0	2195,0	10037,3	9612,0	10563,0
Nukus shahri	141673,6	49813,9	39350,0	110797,8	69902,6
Jami:	157175,3	64011,4	61945,5	130354,2	88986,8

Qurilish materiallari sanoati kontekstida asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: ushbu aktivlarni tan olish vaqtini to'g'ri belgilash, ularning balans qiymatini hisobga olish, shuningdek ushbu aktivlarga nisbatan qo'llaniladigan balans qiymatidagi o'zgarishlarni, shu jumladan ularning chiqib ketishidan kelib chiqadigan moliyaviy natijalarni kompleks hisobga olish muhimdir. Ushbu qoidalar qurilish sanoati korxonalari resurslarini boshqarishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash uchun muhim bo'lib, bu ularning iqtisodiy barqarorligi va bozor o'zgarishlariga moslashish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida asosiy vositalarning eskirishi 2,1 martaga va boshqa xarajatlar 6,5 martaga o'sgan (2.5-jadval).

2.5-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish materiallari ishlab chiqarishda tannarx dinamikasi (mlrd.so'm) [9]

Xarajat nomi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Moddiy xarajatlar	146,9	71,7	74,3	89,1	404,8

Ish haqi	39,5	30,8	29,2	33,2	56,9
Ijtimoiy sug'urta badallari	4,8	2,4	3,0	3,9	5,0
Asosiy vositalarning eskirishi	19,5	35,5	27,1	46,1	41,3
Boshqa xarajatlar	21,7	48,9	37,1	49,5	140,1

Tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, mazkur sanoatga turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan: investitsion qurilish hajmining o'sishi; qurilish hajmi dinamikasida nisbiy pasayish mavjudligi; hududning sanoat markazlaridan uzoqligi; ayrim qurilish materiallarini ishlab chiqarishda mahalliy xomashyoning yetarli darajada emasligi; ayrim qurilish materiallarini ishlab chiqarishda mahalliy xomashyoning mavjudligi; hududda qurilish materiallari ishlab chiqarilishida qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilaridan nisbatan kam foydalanilayotganligi (bu ekologiyaning murakkablashuviga ham ta'sir ko'rsatmoqda).

Aytish kerakki, o'rganilayotgan hududda kapital qurilish barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib, bu mamlakatimizda urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 %ga etkazish bo'yicha Davlat dasturini amalga oshirish zarurati bilan bog'liq [9]. Bizning fikrimizcha, Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish materiallari sanoati va qurilish innovatsion rivojlanish sharoitida kompleks yondashuvni talab qiladigan bir qator asosiy muammolarga duch kelmoqda:[5]

istiqbolli foydali qazilma konlarini ishga tushirish bilan bog'liq yangi va nisbatan rivojlanmagan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish zarurati. Ushbu jarayon konlarni barqaror o'zlashtirishni ta'minlash uchun katta moliyaviy va tashkiliy resurslarni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

urbanizatsiya davlat dasturini amalga oshirish bilan bog'liq shaharsozlik ishlariga talabning ortishi. Ushbu dastur nafaqat mavjud shahar hududlarini kengaytirishni, balki yangi turar joy va sanoat zonalarini yaratishni ham nazarda tutadi, bu esa qurilish sanoati korxonalarining keng ko'lamli loyihalarni bajarishga yuqori darajada tayyorligini talab qiladi [5]. Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish materiallari sanoati o'zining xomashyo bazasi va geografik joylashuvi bilan yuqori salohiyatga ega. Sohaning istiqboldagi rivojlanishini quyidagi asosiy xulosalar bilan umumlashtirish mumkin: Qoraqalpog'iston hududi kvars qumi, ohaktosh, gips, granit va marmar kabi tabiiy boyliklarga boy. Hozirda ushbu resurslarning aksariyati xomashyo ko'rinishida tashqariga chiqarilmoqda. Xomashyoni chuqur qayta ishlab, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar (shisha buyumlar, keramik plitkalar, pardozlash toshlari) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish iqtisodiy samaradorlikni 3-4 barobarga oshiradi. Mintaqaning iqlim sharoiti va energiya resurslari narxini hisobga olgan holda, sanoatni modernizatsiya qilish davr talabidir.

Qoraqalpog'istonda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish uchun xomashyo qazib olishdan tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan zanjirni yaratish, hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va kadrlar malakasini oshirish orqali mintaqani mamlakatimizning yirik sanoat markazlaridan biriga aylantirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari: Qurilish materiallari sanoatini tartibga soluvchi, xususan, 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyalar.
2. "Qoraqalpog'iston Respublikasini 2022–2026-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar (Ushbu hujjatlarda sanoat zonalar va klasterlar bo'yicha aniq raqamlar keltirilgan).
3. Asatullayev X.S., G'oyibnazarov B.K. "Sanoat iqtisodiyoti" – Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning umumiy qonuniyatlari va samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha darslik.
4. Vahobov A.V., Tojiboyeva D.A. "Iqtisodiy tahlil" – Korxonalar va tarmoqlar faoliyatini tahlil qilish metodikasini o'rganish uchun.
5. Aliev Paraxat Keunimjaevich "Qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish sharoitida ta'lim va konsalting xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish" Nukus – 2025. Dissertatsiya. UDK: 338.46:378(575.172)
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotnomalari: "Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" (Yillik to'plamlar).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 ноябрдаги « 2020 — 2023 йилларда Қорақалпоғистон Республикасини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4889-сонли қарори. \ www.lex.uz
8. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 ноябрдаги « 2020 — 2023 йилларда Қорақалпоғистон Республикасини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4889-сонли қарори. \ www.lex.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish materiallari sanoatining hozirgi holati, mavjud resurs salohiyati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Hududning tabiiy xomashyo bazasi, jumladan ohaktosh, gips, qum-shag'al va boshqa mineral resurslarining sanoatni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma, investitsiya muhiti hamda ichki va tashqi bozor talabi asosida tarmoqni modernizatsiya qilish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, sanoat rivojlanishi, hududiy sanoat siyosati, investitsiya faoliyati.

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние, имеющийся ресурсный потенциал и перспективы развития промышленности строительных материалов в Республике Каракалпакстан. Освещена роль природной сырьевой базы региона, включая известняк, гипс, песчано-гравийные и другие минеральные ресурсы, в развитии промышленности. Также обоснована необходимость модернизации отрасли на основе производственных мощностей, инфраструктуры, инвестиционного климата, а также спроса внутреннего и внешнего рынков.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, промышленное развитие, региональная промышленная политика, инвестиционная деятельность.

Abstract. This article analyzes the current state, existing resource potential, and development prospects of the construction materials industry in the Republic of Karakalpakstan. The role of the region's natural raw material base, including limestone, gypsum, sand and gravel, and other mineral resources in industrial development is highlighted. The necessity of modernizing the industry based on production capacities, infrastructure, the investment climate, and domestic and foreign market demand is also substantiated.

Key words: construction materials industry, industrial development, regional industrial policy, investment activity.

